

MAQSUD SHAYXZODA– ALISHER NAVOIY LIRIK MEROSINING
TADQIQOTCHISI
("G'AROYIB US-SIG'AR" DEVONI MISOLIDA)

Jo'raqulova Marjona,

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining
adabiyotshunoslik yo'nalishi 2-bosqich magistri

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18513882>

Annotatsiya. Maqolada Maqsud Shayxzoda ulug' shoir va mutafakkir Alisher Navoiy ijodi, jumladan, she'riyatidagi mahorat masalalari yoritib berilgan. Shayxzoda navoiyshunos sifatida ulug' shoirning tarjimai holining ayrim nuqtalariga aniqlik kiritgan, she'riy merosini o'rganish orqali shoirning "G'azal mulkingning sultoni" ekanligini asoslagan, "G'aroyib us-sig'ar" devonini lirik jihatdan chuqur tahlil qilgan. Alisher Navoiyning mahorat sirlarini tatqiq etib, shoir ijodxonasiidagi ifoda uslubi xususiyatlarini aniqlagan.

Kalit so'zlar: navoiyshunoslik, lirika, lirik qahramon, g'azal, tahlil, poetika, mahorat va uslub.

Аннотация. Статья освещает вопросы мастерства Мақсуда Шейхзаде по исследованию творчества великого поэта и мыслителя Алишера Навои. Шейхзаде в своих работах прояснил некоторые моменты биографии великого поэта, обосновал статус поэта как «султана страны газелей», изучив его поэтическое наследие, и провел углубленный лирический анализ дивана «Чудеса детства». Исследуя секреты мастерства Алишера Навои, он выявил особенности стиля выражения в творчестве поэта.

Ключевые слова: исследование, творчество, Навои, лирика, лирический герой, газель, анализ, поэтика, мастерство и стиль.

Annotation. The article examines the creative legacy of the great poet and thinker Alisher Navoi, with particular emphasis on issues of poetic mastery in his works. As a Navoi scholar, Maqsud Shaykhzoda clarifies certain aspects of the poet's biography and, through a comprehensive study of Navoi's poetic heritage, substantiates his status as the "Sultan of the Realm of Ghazals." The article offers an in-depth lyrical analysis of the G'aroyib us-sig'ar divan and explores the secrets of Navoi's artistic mastery, identifying the distinctive features of his expressive style and poetic craftsmanship.

Keywords: Navoi studies, lyric poetry, lyrical hero, ghazal, analysis, poetics, mastery and style.

Kirish. Alisher Navoiy ijodini o'rganish, uni tahlil va tadqiq qilish shu vaqtga qadar ko'plab olimlar va adiblar faoliyatining asosiy yo'nalishini tashkil qiladi. Shunday olimlar qatorida shoir va dramaturg, filologiya fanlari nomzodi, dotsent Maqsud Shayxzoda ilmiy merosining alohida o'rni bor. Maqsud Shayxzodaning Alisher Navoiy adabiy merosiga bo'lgan e'tibori tufayli o'zbek navoiyshunosligi alohida ilmiy taraqqiyotga erishdi. Maqsud Shayxzoda ilmiy me'rosida folklorshunoslik va jahon adabiyoti muammolari, sharq xalqlari mumtoz she'riyati kabi masalalar izchil o'rganilishi bilan birga navoiyshunoslik Maqsud Shayxzoda ilmiy merosining asosiy yo'nalishini tashkil qiladi. Muallif bu sohada bir necha maqolalar e'lon qilgan, Yozuvchi o'zi yaratgan maqola, dissertatsiya va ilmiy tadqiqotlar yozgan bo'lib, ular orasida "Navoiyning lirik qahramoni" hamda "Alisher Navoiy lirikasining ba'zi bir poetik usullari haqida" mavzusidagi tadqiqoti alohida ahamiyatlidir.

Maqsud Shayxzoda 1930-yillarda Ozarbayjondan Toshkentga kelib, dastlabki ikki oy ichida o'zbek tilini puxta egallab, badiiy ijod bilan shug'ullana boshlagan.

1930-yillarning oxirida Toshkent pedagogika institutiga ishga taklif etilib, bu yerda Alisher Navoiyning 500 yillik yubileyi qo'mitasi ishlariga jalb etilgan. Shuningdek, yubiley munosabati bilan yozilgan "Navoiyning lirik qahramoni haqida" maqolasi "Yosh leninchi" gazetasida e'lon qilindi. Maqolada Navoiy lirik qahramoni va uning she'riy matndagi xususiyatlari, tasvir tamoyillari va ifoda usullari haqida mulohazalar bildirilgan.

Adabiyotlar sharhi. Maqsud Shayxzodaning "Genial shoir" (1941) monografiyasi bir necha qismdan iborat bo'lib, unda "Navoiyning siyosiy qarashlar", "Navoiyda gumanizm", "Navoiy ijodida ayol obrazi", "Xamsa"da muhabbat problemi", "Navoiy o'z davrining eng madaniy kishisi", Navoiy ilmparvar", "Navoiyda ilmparvarlik va internatsionalizm", "Navoiy va yoshlik", "Navoiy va zamonamiz" kabi boblar orqali ulug' shoirning shaxsiyati, bunyodkorlik ishlari va benazir ijod namunalari tahlil qilingan. Shu bilan bir qatorda, uning "Navoiy lirikasining ba'zi bir poetik usullari haqida" (1959) tadqiqotida esa "G'aroyib us-sig'ar" devoni bo'yicha o'z fikr va qarashlarini bildiradi, "Tazkirachilik tarixidan" (1968) nomli tadqiqotida esa Alisher Navoiyning ozarbayjonlik tazkirachi shogirdi Davlatshoh ibn Alaiddavla haqida fikr yuritgan. Shuningdek, ularda navoiyshunoslik fanining yangi qirralarini ochib berdi va bu tadqiqotlar zamonaviy navoiyshunoslik ilmining taraqqiyoti uchun xizmat qildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada tarixiy-qiyosiy va qiyosiy-tipologik hamda tavsifiy metodlar imkoniyatlaridan foydalanildi.

Tahlillar va natijalar. Shayxzoda ilmiy tadqiqot olib borish jarayonida Navoiy lirikasiga jiddiy diqqatini qaratdi va bu Navoiy lirikasini nazariy jihatdan o'z uslubida o'rganishning muhim bosqichi sifatida ko'zga tashlanadi. Navoiy poetikasi hamda lirikasini o'rganish sohasida keyingi davrda nashr etilgan monografik tadqiqotlar hamda dissertatsiyalarda Shayxzoda ilmiy uslubining bevosita ta'siri bor. Zotan, bu holat o'zbek adabiyotshunosligining zamonaviy jahon adabiyotshunosligi uslubiy asoslarida taraqqiy etishiga vosita bo'lishida muhim omillardan biri hisoblanadi. Professor Abdurauf Fitrat "(Bedil bir majlisda)" risolasida Mirzo Abdulqodir Bedil ijodiga nisbatan aytilgan "Bedil shunday ummonki, undan har kim o'z idishiga yarasha suv ko'taradi" so'zlarini Shayxzoda tilidan Alisher Navoiyga nisbatan qo'llanilishi mumkinligi aytiladi.

Shayxzoda serqirra ijodkor sifatida Alisher Navoiy adabiy merosiga zo'r ehtiros, katta qiziqish bilan munosabatda bo'lgan. Ulug' mutafakkir shoir asarlari xususida shunday deydi: "Navoiyning asarlari bizga katta xizmat ko'rsata oldi. Navoiyning ishlash uslubi, mehnatni uyushtira bilishi, tarix oldida, xalq oldida va o'z vijdoni oldida mas'uliyat sezishi, asarlarning chuqur g'oyaviyligi, har bir misra ustida zargar singari puxta ishlashi va boshqalar yosh yozuvchilar uchun o'rnak bo'la olur". [6:201] Adabiyotshunos olim, O'zbekiston Qahramoni Ibrohim G'ofurivning ushbu so'zlari

nafaqat Alisher Navoiy ijodiy me'rosining, balki Maqsud Shayxzoda ilmiy me'rosining ahamiyati haqida ham aytilgandir.

Shayxzoda Navoiy haqida doktorlik ishini boshladi. Ammo keyinchalik bu ishni qisman davom ettirib "Navoiy lirikasining g'oyaviy va badiiy-poetik xususiyatlari" [8:216] mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi oxiriga qadar yetmay qoldi. Dissertatsiya bo'yicha Shayxzoda shaxsiy kundalik daftariga yozilgan reja va qaydlar, ayrim boblarning bayoni bugungi kunda Shayxzoda arxivida 8ta daftardan iborat tarzda saqlangan. 1965-yildan boshlab Navoiyning lirikasiga bag'ishlangan yana bir ulkan ilmiy ish, ya'ni "Ustodning san'atxonasida" nomli katta monografik kitobining dastlabki boblari e'lon qilina boshlandi. Ushbu tadqiqot asosida Alisher Navoiyning "G'aroyib us-sig'ar" devoni tahlil etilib, unga kirgan she'rlar misolida Navoiy poetik mahoratining ayrim qirralarini shoir ijodidagi obrazlar va ifoda usullarini tadqiq etib, shoir mahoratini ochib beradi. Maqsud Shayxzoda Alisher Navoiyning ushbu baytini keltirib, yozadi:

"Qildi Navoiy qaddinga sarvi sahi tashbehini,

Bu tab'i nomavzun ila bechora shoir bo'lg'usi

Ushbu baytdan ko'rinadiki, Navoiy nazarida chin shoirona san'atning sharti badiiy ifoda yangilik, originallik izlashdir". [7:196] Bu bilan Maqsud Shayxzoda "G'aroyibus sig'ar" devonidagi g'azallarni tahlil qilib, Navoiy g'azallarni yaratishda asoslangan manbalarni aniqlaydi. Shayxzoda Alisher Navoiy devon yaratishda Sharq devonlariga kiritiladigan qasida yoki madhiya ruhida yozilgan she'r mavjud emasligini keltirib o'tarkan, ulug' shoir: "rasmiy xarakterda yozilgan she'rlarni lirik devonga kiritishga loyiq ko'rmagan (holbuki uning Boyqaro haqida bir qancha qasidalar yozilgani ma'lum)" [7:196] degan xulosaga keladi. Chunki, Shayxzoda fikriga ko'ra, boshqa devon tuzuvchilar o'z kitoblarining boshida o'sha davr hukmdorlariga qasida keltirib o'tish orqali biror in'om olishga umidvor ekanliklarini ham ma'lum qilishgan, ammo Navoiy bunday muddaolardan xoli shaxs bo'lgan.

Ma'lumki, "G'aroyib us-sig'ar" devonining asosiy qismini g'azal tashkil qiladi va buning sababi haqida shunday ma'lumot beradi: "Boshqa janrda yozilgan she'rlar forma jihatidan nihoyatda muayyanlashgan shartlarga bo'ysunishi shart: masalan, ruboiy 3 yoki 5 misralik bo'lishi joiz bo'lmaganidek, muxammasning har bir bandi 5 misradan iborat bo'lishi lozim. Ammo, g'azalda hajm jihatidan bir qadar erkinlik bor." [7:197] Maqsud Shayxzoda bunday fikrga kelishda V. G. Belinskiyning "Lirik asar, oniy bir sezgidan tug'ilganligi uchun uzun bo'lolmaydi va bo'lmasligi ham kerak, aks taqdirda u sovuq va sun'iy bo'lib, kitobxonga roxat berish o'rniga uni bezdiradi" [7:197] degan fikrlariga tayanadi. Alisher Navoiy g'azallari 14-18 misradan oshmasligini ta'kidlaydi. Navoiy g'azallarida mavjud bo'lgan asosiy xislatlarni sanar ekan, avvalo, g'azalning mantiqiy tarzda tuzilishi, bir hodisaning ikkinchi hodisadan tug'ilib kelish xususiyatini asoslab beradi. Navoiydan oldingi ijodkorlar o'z g'azallarida bunday xususiyatdan foydalanmagan va ularning g'azallaridagi baytlarning o'rnini almashtirib o'qigan holatda ham g'azalda

hech qanday o'zgarish sezilmaydi. Bu esa garchi ularda go'zal istiora va tashbehlar qo'llanilgan bo'lsa-da, ammo syujet mavjud emasligini bildiradi. Shayxzoda bu so'ziga isbot tarzida "Hatto mashhur Hofiz Sheroziyning g'azallarida biz bu holatni ko'ramiz. Uning bir qancha g'azallari va jumladan ashulaga tushib ketgan "Agar on turki Sheroziy ba dast orad dili moro" matla'li g'azali har xil qo'lyozmalarda va kuyga solib aytilishida baytlarning tartibi har xil berilsa ham ma'noga halal yetkazmasligini, bularda syujetning yo'qligiga yaqqol dalildir" degan fikrlarini keltiradi va bu holatda Navoiyning yo'li o'zgacha ekanligini turli misollar orqali asoslaydi. Ya'ni Shayxzoda Navoiy g'azallarida mukammal voqeaband syujetli lirik bir holat yaratishi va bu g'azal baytlarining o'rnini o'zgartirishning imkoni yo'qligi haqida o'rganib chiqqan va Navoiyning "Yordin ayru ko'ngul" matla'li g'azalini keltirib, bu g'azalda har bir misradagi fikr biri birini to'ldirib kelayotganini asoslab bergan. Ya'ni, birinchi baytda: yorsiz ko'ngul - sultonsiz mulk, sultonsiz mulk - jonsiz jism; ikkinchi baytda: jonsiz jism – rayhonsiz tuproq, rayhonsiz tuproq – oysiz kecha. Shayxzoda, shu uslubda g'azalning har bir baytini mazmuni bilan ifodalab beradi va g'azaldagi baytlar fikran, jismonan ham voqean bir biriga chambarchas bog'liqligini, har bir bayt boshdan oyoq tashbeh bilan qurilganligini ifodalab beradi. Bu g'azalning hech bir baytini boshqalari bilan almashtirishning imkoni yo'qligi, agar o'rinlari o'zgartirilsa she'rdagi mantiqiy ip uzilib, ma'no buzilishiga olib kelishini aytib o'tadi.

Shayxzoda Alisher Navoiy devonidan turli g'azallar keltirib "G'azalda ma'lum voqea (keng ma'noda) yarata bilish, baytlarni ma'nan, fikran va suratan bog'lash, u yoki bu darajada Navoiy lirikasiga xos bo'lgan badiiy usullardan biridir" degan xulosaga keladi.

Ikkinchi xususiyat sifatida Shayxzoda Navoiy g'azallarida tadrijiylikni keltirib o'tadi. Tadrij bu fikr, obraz yoki badiiy g'oyaning asta-sekin chuqurlashtirilib, mukammallikka olib borilishidir. Shayxzodaning bu fikri obraz takomiliga ham tegishli bo'lib, Navoiy g'azallarida har bir bayt o'zidan oldingi baytda keltirilgan fikrning chuqurlashtirishini yuzaga chiqarilganini ifodalab beradi. Ya'ni she'rda fikr bir joyda to'xtab qolmaydi, har bir bayt yangi obraz bilan emas, avvalgi fikrni yanada boyitish, kengaytirish, chuqurlashtirish uchun xizmat qiladi. Bu fikrlarini misollar orqali izohlaydi. Masalan,

Yig'lama, ey ko'z, nedin sohilga chiqmas kema deb,

Kim, yoshing daryosidur harsorikim, el ko'z solur.

Baytda shoir o'z ko'zlariga xitob qilib, sizlar o'sha kemani va kema yorni sohilga nechuk chiqmaydi deb yig'lamang. Chunki, kema sohilga chiqolmasligiga aybdor sizlar, o'z'laringiz! Shu qadar ko'p yig'ladingizki, ko'z yoshlaringiz hamma yoqni daryo qilib yubordi. Ana shuning uchun ham kema qirg'oqqa chiqolmaydi. Ko'rinib turibdiki, bu bayt, matla'ga nisbatan chuqurlashtirish va inkishof ettirilgan. [7:200] Shayxzoda bu fikrlari orqali Navoiy lirikasini oddiy emotsional bayon emas, balki chuqur badiiy muhandislik bilan ishlangan she'rlar to'plami ekanligini ko'rsatmoqda.

Alisher Navoiy lirikasidagi yana bir xususiyatning mavjudligini aniqlab, bu esa inkor, qarama-qarshilik tushunchasi hisoblanadi. Shayxzoda Navoiy g‘azallarini chuqur tahlil qilib, ularda ayrim holatlarda fikrni qarama-qarshi yo‘nalish bilan kuchaytirishni tushuntiradi. Shayxzodaning fikricha, ba‘zi baytlarida Navoiy bir obrazni ko‘rsatib, keyingi baytda uni rad etadi, unga mutlaqo qarama-qarshi ruhiy holat yoki badiiy timsolni qo‘yadi. Ya‘ni, Navoiy ba‘zida “shu narsa” emas, “aslida boshqacha” degan mohiyatni tazod orqali tushuntiradi.

Bunga isbot tarzida Shayxzoda quyidagi baytni keltiradi:

Jahonki, ohim bila tiyradur, emas mumkin,

Bu shom raf‘i yuzung subhi bo‘lmayin mavjud. [7:200]

Shoirning, hasrat bilan tortgan ohu faryodlari jahonni qorong‘u qilgandir. Ammo bu qorong‘uni (oqshomni, kechani) yo‘qotish uchun faqat bir chora bor, u ham bo‘lsa jononning shafaqqa o‘xshagan yorug‘ yuzidir. Demak, shomni (qorong‘uni) yo‘qotish uchun tong (yorug‘lik) kerak ekan. Ikkinchi obraz birinchisini inkor etadi. Bunda Shayxzoda Navoiyning poetik fikri naqadar kuchli bo‘lganini, u birgina so‘z yoki holat bilan emas, balki ichki ziddiyat, qarama-qarshi holatni bir bayt ichida to‘qnash keltirib kuchli tasvir yaratganini ko‘rsatgan. Maqsud Shayxzoda ushbu misollari va ularning tahlillari orqali shunday demoqchi: Navoiyning lirikasi oddiy so‘zlar orqali ulkan ruhiy ziddiyatlarni ifoda etadi, bunda esa tazod asosiy poetik vositalardan biridir. Shoir ba‘zan fikrni chuqurroq bayon qiladi. Ba‘zida esa unga mutlaqo zid fikr yoki obrazni qarama-qarshi qo‘yib, ruhiy ziddiyatlarni ochib beradi. Shayxzodaning fikriga ko‘ra, Navoiy o‘sha davrda sodir bo‘layotgan zulm va jafolardan nafratlangan, bunday adolatsizlikni qanday yo‘q qilishni bilmagan. O‘zining bunday qarashlarini, davrda sodir bo‘layotgan ziddiyatlarni o‘z she‘rlarida tazod orqali go‘zal tarzda ifodalab bergan. Bu esa Navoiy lirikasiga xos bo‘lgan uchinchi usul hisoblanadi. Adabiyotda eng ko‘p g‘azal yaratgan shaxs bu Navoiy ekanligini, ammo u “G‘aroyib us-sig‘ar”ini tashkil qilishda hech qanday xushomad, dunyolarga ta‘zim ruhida bitmaganini, uning asosiy mavzusida, o‘zining eng nozik tuyg‘ularini, haqqoniy hodisalarni yozgani bilan ajralib turishini, shoir g‘azalni vijdoniy bir burch deb hisoblaganini izohlaydi. Aynan shuning uchun ham Navoiyni g‘azal mulkinging sultoni deya ta‘riflashi bejiz emas.

Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyida hozirgi kunda ham Shayxzodaning barcha qo‘lyozmalari mavjud bo‘lib, ular orasida Navoiy haqida qilingan ishlari alohida ajratilgan. Fondga o‘zbek va rus tillaridagi maqolalar, ayrimlari eski o‘zbek yozuvida yozilgan bo‘lib, yigirmadan ortiqni tashkil qiladi. Shu tarzda Shayxzoda Alisher Navoiy haqida, uning ijod yo‘li haqida shunchalar chuqur va atroflicha o‘rganadiki, bu harakat bugungi kun yoshlari Navoiyni tanishi uchun, bugungi kun olimlari Navoiyni yanada chuqurroq o‘rganishi uchun zamin yaratadi.

Xulosa. Mazkur maqolada Maqsud Shayxzodaning Alisher Navoiy lirik merosini o‘rganishdagi ilmiy faoliyati “G‘aroyib us-sig‘ar” devoni misolida tahlil qilindi. Tadqiqot

natijalariga ko'ra, Shayxzoda Navoiy lirikasini an'anaviy tavsiflash doirasidan chiqarib, uning poetik tuzilishi, badiiy mantiqi va ifoda usullarini nazariy jihatdan asoslab bergan yetuk navoiyshunos sifatida namoyon bo'ladi.

Olim Navoiy g'azallarida baytlar o'rtasidagi mazmuniy uzviylik, voqeaband lirik holat, tadrijiylik va tazod kabi poetik xususiyatlarni aniqlab, ularning shoir badiiy mahoratini belgilovchi asosiy omillar ekanini ilmiy dalillar bilan isbotlaydi. "G'aroyib us-sig'ar" devonini tahlil qilish orqali g'azal janrining Navoiy ijodidagi yetakchi o'rni hamda shoirning badiiy tafakkuri yuksak bosqichga ko'tarilgani ochib beriladi.

Maqsud Shayxzodaning Navoiy lirikasiga oid ilmiy tadqiqotlari shoir ijodining g'oyaviy-badiiy mohiyatini chuqur anglashga xizmat qiladi hamda zamonaviy navoiyshunoslik ilmi taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alisher Navoiy. G'aroyib us-sig'ar. MAT (Mukammal asarlar to'plami). 3-jild. – T.: Fan, 1988.
2. İki xalq o'glu Maqsud Şeyxzadə. (Anadan olmasinin 110 illiyi munasibətılə məruzələr və fotolar). B.: Elim də təhsil, 2019.
3. Исаков, Ёкубжон. Алишер Навоийнинг илк лирикаси. ФА А.С.Пушкин номидаги Тил ва адабиёт институти. – Тошкент, 1963.
4. Жураев, Хабибулло Абдусаломович. Алишер Навоий лирикаси вокелик ва унинг поэтик талкинлари (Узига хослик ва анъанавийлик асосида). УзР ФААлишер Навоий номидаги Тил ва адабиёт институти. –Тошкент, 2006.
5. Хайитметов, Абдукодир. Навоийнинг иждодий методи (Иккинчи китоб: Навоий лирикаси): Навоий лирикаси. УзССР ФА А.С. Пушкин номидаги Тил ва адабиёт институти. –Тошкент, 1965.
6. G'afurov I. O'rtoq shoir. Maqsud Shayxzoda ijodiyoti. – T., 2015. –
7. Shayxzoda M. Alisher Navoiy lirikasining ba'zi bir poetik usullari haqida / Tanlangan asarlar. 4-tom. – T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1972.
8. Shayxzoda M. Ustodning ijodxonasida. –T.: Sharq yulduzi, 1966. 7-son.
9. O'z RFA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot va san'at muzeyi. Shayxzoda fondi. –T. Saqlash raqami 425.
10. "Chor devon", 209-bet (Misollar O'zb F. A., Til-adabiyot institutining qo'lyozma "Chor devon"idan olindi.)